



ISLOM BANK XIZMATLARINI TASHKIL ETISH TURLARI VA SHAKLLARI

Sirojiddinov Shukrullo

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi
"O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy
asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi
ORCID: 0009-0004-9893-4406
sirojiddiniv2002@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada tijorat banklarida islom moliyasi xizmatlarini taqdim etishning uch asosiy modeli - islom darchasi, islom sho'ba banki va to'liq islom banki - nazariy jihatdan qiyosiy tahlil qilinadi. Tahlil kirish xarajatlari nazariyasi, tranzaksion xarajatlar nazariyasi, resursga asoslangan yondashuv va institutsional nazariya kabi to'rtta fundamental iqtisodiy konsepsiya orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, maqolada islom darchalari tomonidan ko'rsatiladigan asosiy moliyaviy xizmat turlari - murobaha, mudoraba, mushoraka, ijara, istisna va salam - shartnomaviy mexanizmlari bilan batafsil yoritiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston kabi islom moliyasi bozori hali shakllanish bosqichida bo'lgan mamlakatlarda islom darchasi modeli kirish xarajatlari minimalligi, mavjud infratuzilmadan foydalanish samaradorligi va dinamik moslashuvchanlik jihatidan strategik ustunlikka va ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: islom darchasi, islom sho'ba banki, to'liq islom banki, kirish xarajatlari nazariyasi, tranzaksion xarajatlar, resursga asoslangan yondashuv, institutsional nazariya, murobaha, mudoraba, mushoraka, ijara, istisna, salam.

ВИДЫ И ФОРМЫ ОРГАНИЗАЦИИ ИСЛАМСКИХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ

Сироджиддинов Шукрулло

Научно-исследовательский центр «Научные основы и
проблемы развития экономики Узбекистана» при
Ташкентском государственном экономическом университете

Аннотация. В данной статье проводится теоретический сравнительный анализ трех основных моделей предоставления исламских финансовых услуг в коммерческих банках: исламского окна, исламского дочернего банка и полностью исламского банка. Анализ проводится с использованием четырех фундаментальных экономических концепций: теории входных издержек, теории транзакционных издержек, ресурсного подхода и институциональной теории. В статье также подробно рассматриваются основные виды финансовых услуг, предоставляемых исламскими банками, а именно: мурабаха, мудараба, мушарака, ижара, истисна и салам, с их договорными механизмами. Ключевые слова показывают, что в таких странах, как Узбекистан, где рынок исламских финансов все еще находится на стадии становления, модель исламского окна имеет стратегическое преимущество и значимость с точки зрения минимальных затрат на внедрение, эффективности использования существующей инфраструктуры и динамической гибкости.

Ключевые слова: исламское окно, исламский дочерний банк, полноценный исламский банк, теория входных издержек, транзакционные издержки, ресурсный подход, институциональная теория, мурабаха, мудараба, мушарака, аренда, истисна, салам.

TYPES AND FORMS OF ORGANIZING ISLAMIC BANKING SERVICES

Sirojiddinov Shukrullo*Research Center "Scientific Foundations and Problems of the Development of the Economy of Uzbekistan" under the Tashkent State University of Economics*

Abstract. *This article provides a theoretical comparative analysis of the three main models for providing Islamic financial services in commercial banks - Islamic windows, Islamic subsidiary banks, and full Islamic banks. The analysis is carried out through four fundamental economic concepts: the theory of entry costs, the theory of transaction costs, the resource-based approach, and institutional theory. The article also provides a detailed explanation of the main financial services provided by Islamic banks - murabaha, mudaraba, musharaka, ijara, istisna, and salam - along with their contractual mechanisms. The results of the study show that in countries such as Uzbekistan, where the Islamic finance market is still in its infancy, the Islamic window model has a strategic advantage and importance in terms of low entry costs, efficient use of existing infrastructure, and dynamic flexibility.*

Keywords: *islamic window, Islamic subsidiary bank, full Islamic bank, entry cost theory, transaction cost, resource-based approach, institutional theory, murabaha, mudaraba, musharaka, ijara, istisna, salam.*

Kirish.

Islom moliyasini yangi joriy etayotgan mamlakatlar oldida strategik tanlov turadi: to'liq islom bankini tashkil etish, mavjud tijorat banklari tarkibida islom darchalari yoki islom sho'ba banklari ochish. Bu tanlov faqat siyosiy qaror bo'lmasdan, chuqur iqtisodiy, moliyaviy va institutsional asoslarni talab etadi. O'zbekistonda O'RQ-1126-sonli Qonunning (2026) qabul qilinishi islom bankchiligi uchun huquqiy poydevor yaratdi va tijorat banklariga islom xizmatlarini taklif qilish imkonini berdi. Shu munosabat bilan qaysi modelni tanlash - islom darchasi, sho'ba bank yoki to'liq islom banki - eng samarali va amaliy yo'l ekanligi dolzarb ilmiy masalaga aylandi. Mazkur maqolada ushbu uch model to'rtta asosiy nazariy yondashuv orqali qiyosiy tahlil qilinadi hamda islom darchalari ko'rsatadigan moliyaviy xizmat turlari mexanizmlari bilan birga taqdim etiladi.

Adabiyotlar sharhi.

Mahkamov o'zining (2021) "Tijorat banklarida faoliyat ko'rsatuvchi islom darchalarining dolzarbligi" nomli ilmiy maqolasida tijorat banklarida islom darchalarining o'rni haqida fikr yuritgan. Banklarda islom darchalari o'zini oqlaydi, chunki bu orqali ko'plab banklar moliyaviy resurslar, inson kapitali va islom moliyasini rivojlantirish uchun mavjud infratuzilma bilan boshqariladi. "Islom darchasi"ni yaratish orqali bank yangi aktivlarni jalb qilishda o'ziga muammo tug'dirmasdan, bozorni o'rganish, uning salohiyatini aniqlash imkoniyatiga egadir, chunki mavjud filiallar orasidan "Islom darchasi" yaratilishi mumkin deb hisoblagan. Islom darchalari mamlakatda islomiy bankchilikni rivojlantirish uchun debocha rolini zikr etadi. Agar uning xizmatlariga talab yaxshi bo'lsa, uni mustaqil islom banklariga aylantirish mumkinligi ham nazardan chetda qolmagan.

Dodiyev Fozil O'tkurovich va Boboyorov Asilbek Yo'ldoshovichlar (2022) o'zlarining "O'zbekistonda islomiy bank mahsulotlarini joriy etish istiqbollari" mavzusidagi maqolasida mamlakatimiz iqtisodiyotida islomiy bank mahsulotlarini joriy etishning zarurligi va ularni o'ziga xos xususiyatlari va turlari tahlil qilgan. Shuningdek, islomiy bank mahsulotlarini joriy etish holati, bu bilan bog'liq muammolar tadqiq etilib, ularni bartaraf etish qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan. Mualliflar maqolaning xulosa qismida bir qancha xulosa va takliflarni berib o'tgan:

- mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishni ta'minlash uchun bank tizimida muqobil moliya institutlarini rivojlantirish va zamonaviy bank mahsulotlarini joriy etish kerakligi;

- mamlakatimizda "islom darchalari" faoliyatini boshlash uchun me'yoriy-huquqiy asos haligacha yaratilmagani;

- mavjud qonun bo'yicha mamlakatimizda islomiy bank xizmatlarini faqatgina nobank kredit tashkilotlari ko'rsatishga haqli, tijorat banklarining "islom darchasi" ochish jarayoni esa murakkab va qiyinligi;

Chenguyel Muhammed Bechir va Juyru Meryem (2019) o'zlarining "Islom darchalarining an'anaviy banklarda faoliyat olib borishi" nomli maqolasida islom moliya vositalari mahsulotlarining tijorat banklaridagi o'rni haqida so'z yuritilgan. Maqolada korrelyatsiya tahlili uslubidan foydalanilgan va islom moliya vositalari (Muzoraba, murobaha, ijara va salam) qanchalik darajada tijorat banklari uchun foydali ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada qiyosiy nazariy tahlil metodologiyasi qo'llanilib, islom bankchiligi uchun mavjud uch institutsional model - islom darchasi, islom sho'ba banki va to'liq islom banki - to'rtta asosiy nazariy holat orqali bir-biriga nisbatan baholanadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Islom moliyasini yangi joriy etayotgan mamlakatlar oldida quyidagi strategik tanlovlar turadi: to'liq islom bankini tashkil etish, mavjud tijorat banklari tarkibida islom darchalari yoki islom sho'ba banklari ochish. Ushbu uch model o'rtasidagi tanlov faqat siyosiy qaror emas, balki chuqur iqtisodiy, moliyaviy va institutsional asoslarga ega bo'lishi lozim. Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, ushbu uch modelning samaradorligi ko'p jihatdan mamlakatning iqtisodiy rivojlanish bosqichi, bank tizimining kapital yetarliligi, islom moliyasiga ixtisoslashgan kadrlar salohiyati va regulyatorlik muhitiga bog'liq.

Mazkur bo'limda ushbu uch modelni to'rtta asosiy nazariy yondashuv - kirish xarajatlari nazariyasi, tranzaksiya xarajatlari nazariyasi, resursga - asoslangan yondashuv va institutsional nazariya - orqali qiyosiy tahlil qilamiz. Har bir nazariy yondashuv O'zbekistonning hozirgi iqtisodiy kontekstiga tatbiq etilib, xalqaro tajribadan dalillar bilan boyitiladi.

Kirish xarajatlari tushunchasi sanoat iqtisodiyotida yangi bozorga kirishning asosiy to'sig'i sifatida ko'riladi. Jeri Duval va Jorj Ford (2001) o'zlarining "Sanoatning o'zgarishi: Kirish va narx raqobati iqtisodiyoti" mavzusidagi tadqiqotlarida kirish xarajatlarini ikki turga ajratadi: ekzogen xarajatlari va endogen xarajatlari. Tadqiqotda kirish xarajatlari majburiyati yangi kompaniyaning mavjud bozor ishtirokchilariga nisbatan kamroq ustunlikka ega bo'lishini va tannarxning nisbatan qimmat bo'lishini sabab sifatida ko'rsatishgan. Islom bankchiligi fonida bu nazariyani qo'llaganda, to'liq islom banki, islom darchasi va islom sho'ba banki modellarining kirish xarajatlari tubdan farq qilishi ma'lum bo'ladi.

To'liq islom bankini tashkil etish bir necha toifadagi boshlang'ich kapital xarajatlarini talab etadi. Birinchi toifa - huquqiy va regulyatorlik xarajatlari: yangi litsenziya olish, regulyator talablarini bajarish uchun kapital zaxirasini shakllantirish (O'zbekistonda hozirgi qonunchilikka ko'ra kamida 500 mlrd so'm), Shariat kengashini tashkil etish va AAOIFI standartlariga muvofiq hisobot tizimini joriy etish. Ikkinchi toifa - infratuzilma xarajatlari: bino sotib olish yoki ijaraga olish, jihozlar, axborot texnologiyalari tizimi (islom moliyasiga moslashtirilgan islamic banking dasturi). Uchinchi toifa - kadrlar xarajatlari: islom moliyasi bo'yicha malakali menejerlar, Shariat ekspertlari va mijozlarga xizmat ko'rsatish xodimlari. To'rtinchi toifa - marketing va mijozlarni jalb qilish xarajatlari: yangi brendni shakllantirish, odamlar orasida tanilishi va mijozlar e'tiboriga tushish.

Islom darchasini ochayotgan tijorat banki esa ushbu xarajatlarning aksariyatini allaqachon amalga oshirgan bo'ladi. U "parent bank" sifatida mavjud binolar, IT tizimi, xodimlar

jamoasi, mijozlar bazasi va brenddan foydalanadi. Natijada islom darchasining boshlang'ich xarajatlari faqat qo'shimcha (marjinal) xarajatlardan iborat bo'ladi: islomiy modullarga moslashtirilgan IT yangilanishi, bir nechta maxsus xodimlarni tayyorlash va bank darajasida Shariat kengashini tashkil etishva h.k.

Abdul-Majid va Hassan (2011) Malayziyadagi 2006–2008 yillar ma'lumotlarini tahlil qilib, islom darchasiga ega an'anaviy banklar islomiy sho'ba banklarga va hatto to'liq islomiy banklarga nisbatan umumiy samaradorlik jihatidan yuqoriroq ekanini aniqlagan.

1-jadval

Islom darchasi, islom sho'ba banki va to'liq islom bankining kirish xarajatlari qiyosiy tahlili

Nomlanishi	Islom darchasi	Islom sho'ba banki	To'liq islom banki
Ta'rif	An'anaviy bankning ichidagi alohida bo'lim	An'anaviy bankning alohida yuridik shaxs sho'bas	Mustaqil, to'liq islomiy bank
Yuridik holat	Alohida yuridik shaxs emas	Alohida yuridik shaxs	Alohida yuridik shaxs
Ota bank	An'anaviy bank (egasi)	An'anaviy bank (egasi)	Yo'q - mustaqil
Kirish xarajatlari			
Boshlang'ich kapital	Alohida kapital talab qilinmaydi	Alohida kapital talab qilinadi	Alohida kapital talab qilinadi
Infratuzilma	Mavjud infratuzilmadan foydalanadi	Qisman yangi infratuzilma kerak	To'liq yangi infratuzilma kerak
Tartibga solish	Regulyator ruxsati kerak	Regulyator ruxsati kerak	To'liq litsenziya kerak
Xarajat darajasi	Past	O'rta	Yuqori
Operatsion xususiyatlar			
Xodimlar	Mavjud xodimlar ham islomiy, ham an'anaviy xizmat ko'rsatadi	Xodimlar faqat islomiy xizmatlarga ixtisoslashgan	Barcha xodimlar faqat islomiy xizmatlarga ixtisoslashgan
Mablag'lar	Islomiy va an'anaviy mablag'lar aralashishi xavfi bor, lekin minimum darajada	Mablag'lar ajratilgan, lekin ota bank ta'siri bor	Mablag'lar erkin
Tarmoq kengayishi	Tezkor - mavjud filiallar orqali	O'rtacha o'sish orqali	Sekin - yangi filiallar ochish orqali
Shariatga muvofiqlik			
Shariat kengashi	Ota bankning kengashidagi Shariat bo'limi	Alohida Shariat kengashi	Alohida Shariat kengashi
Muvofiqlik darajasi	Past (mablag'lar aralashishi xavfi)	O'rta	Yuqori
Shaffoflik	Qiyin - an'anaviy bank natijalari bilan aralashib ketish xavfi bor	O'rtacha	To'liq shaffof
Afzalliklari va kamchiliklari			
Asosiy afzalligi	Arzon, tez, samarali	Muvofiqlik va samaradorlik	To'liq shariatga muvofiqlik
Asosiy kamchiligi	Shariatga muvofiqlik nisbatan zaifligi	Yuqoriroq xarajat, murakkab boshqaruv	Yuqori xarajat, sekin rivojlanish
Qo'llanilishi	Islomiy bankning dastlabki bosqichi	O'rta bosqich	Yetuk bozor

Manba: tadqiqot natijasida muallif ishlanmasi.

Kirish xarajatlari nazariyasi nuqtai nazaridan, islom darchasining past kirish to'sig'i unga yana bir strategik ustunlik beradi. Ya'ni tijorat banki islom darchasini ochib, bozor talabini, samaradorlik ko'rsatkichlarini va regulyatorlik muammolarini minimal xarajat bilan sinab ko'rishi mumkin. Agar natijalar ijobiy bo'lsa, keyingi bosqichda to'liq islom bankiga o'tish yoki alohida sho'ba tashkil etish qaroriga asoslangan tajriba orqali kelish mumkin. To'liq islom bankida esa bu imkoniyat yo'q - katta sarmoya dastlabki bosqichdayoq amalga oshiriladi va noaniq bozor holatida katta moliyaviy risk tug'diradi.

To'liq islom bankida barcha operatsion jarayonlar - moliyaviy hisobot, IT xizmatlar, kadrlar boshqaruvi, mijozlarga xizmat ko'rsatish, likvidlik boshqaruvi, tartibga solish muvofiqligini ta'minlash - mustaqil tarzda tashkil etilishi zarur. Bu esa yuqori ichki tranzaksion xarajatlarni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, yangi bozorga kirishda yangi mijozlar bilan ishonch munosabatlarini o'rnatish ham sezilarli tashqi tranzaksion xarajatlarni taqozo etadi.

Islom darchasida esa ushbu xarajatlarning aksariyati tijorat bank bilan baham ko'riladi. Mazkur hodisani biz "ota bank infratuzilmasini baham ko'rish samaradorligi" deb ataymiz va u islom darchalarining operatsion samaradorligida asosiy rol o'ynaydi. Ushbu effekt bir necha kanallar orqali namoyon bo'ladi:

- Umumiy xarajatlarni taqsimlash: bino, jihozlar, IT tizimi, xodimlar boshqaruv xarajatlari, an'anaviy bank va islom darchasi o'rtasida taqsimlanadi. Bu esa islom darchasining xarajat samaradorligini sezilarli oshiradi.

- Miqyos iqtisodiyoti: islom darchasi ota-bankning katta mijozlar bazasi va keng filial tarmog'idan foydalanadi. Dastlabki rivojlanish davrida bu muhim ustunlik bo'lib, islom darchasini rentabellikka erishishini tezroq ta'minlaydi.

- Institutsional "ishonch" kapitalidan foydalanish: mijozlar yangi noma'lum bankdan ko'ra o'zlari bilgan tijorat bankining islom bo'limiga murojaat qilishga tayyor. Bu esa islom darchasiga bozorga kirishning muhim psixologik to'sig'ini olib tashlaydi.

- Regulyatorlik muvofiqligini taqsimlash: tijorat bank allaqachon ishlab turgan tizimga islom bo'limi uchun qo'shimchalar kirtish amalga oshiradi. Bu to'liq islom bankida alohida qurilishi zarur bo'lgan tizimga nisbatan sezilarli tejamkorlik beradi.

Tranzaksion xarajatlar nazariyasi doirasida islom darchasi modeli, ayniqsa islom moliyasi bozori hali shakllanmagan O'zbekiston kabi mamlakatlarda, to'liq islom bankiga nisbatan samaraliroq institutsional na'muna sifatida ko'rinadi. Bunday mamlakatlarda to'liq islom bankini tashkil etish uchun zarur komplementar institutlar - islom moliyasiga ixtisoslashgan huquqiy tizim, AAOIFI standartlariga mos boshqaruvi tizimi, ixtisoslashgan mutaxassislar bozori - yo'q yoki yetarli rivojlanmagan. Bu esa tranzaksion xarajatlarni yanada oshiradi.

Resursga - asoslangan yondashuv Penrosening dastlabki ishlari va Barneyning (1991) fundamental maqolasi asosida shakllangan bo'lib, firmaning raqobatbardosh ustunligi uning ichki resurslari va kompetentsiyalariga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Barney (1991) raqobatbardosh ustunlik yaratuvchi resurslar to'rtta xususiyatga ega bo'lishi kerak deb hisoblaydi: qimmatli, kamyob, takrorlanmas va tashkiliy.

Islom darchasini ochayotgan tijorat banki yuqoridagi mezonlarga javob beradigan resurslar to'plamiga ega:

- Brend va institutsional obro': "Hamkorbank" kabi o'zbek tijorat banklari o'n yillar davomida shakllantirgan brend va mijozlar ishonchi - qimmatli va kamyob resurs. Yangi islom banki bu obro'ni 0 dan yaratishi kerak bo'ladi, bu esa yillar talab etadi.

- Filial tarmog'i va geografik qamrov: "Hamkorbank" kabi banklar O'zbekiston bo'ylab yuzlab filiallar va xizmat nuqtalariga ega. Islom darchasi shu tarmoq orqali bir zumda keng bozorga chiqadi. To'liq islom banki esa bunday tarmoqni qurishga ulkan sarmoya va ko'p yillar talab etadi.

- Mijozlar ma'lumotlari bazasi: Mavjud tijorat banklari yillar davomida to'plagan mijozlar moliyaviy tarixi, kredit profili va kredit tarixi ma'lumotlari islom mahsulotlari uchun

segmentatsiya va maqsadli marketing imkonini beradi. Bu ma'lumotlar to'liq islom banki uchun yillar talab etadigan resurs hisoblanadi.

- Moliyaviy texnologiyalar va raqamli platforma: Mavjud tijorat banklarining mobil ilovasi va onlayn banking tizimi islom mahsulotlari uchun yangi kanallar sifatida darhol foydalanilishi mumkin. Bu esa islom darchasiga raqamli bozorda tez yurishga imkon beradi.

- Kadrlar salohiyati va korporativ madaniyat: Mavjud bank xodimlari islom moliyasi bo'yicha maxsus o'qitish dasturlari orqali yangi kompetensiya kasb etishi mumkin. To'liq islom bankida esa yangi jamoa shakllantirish va korporativ madaniyat o'rnatish anchagina qiyin.

Barneyning ushbu tahlili shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarining ushbu resurslari - brend, tarmoq, mijozlar bazasi, IT platforma - ayni vaqtda qimmatli, kamyob va takrorlanmaydigan xususiyatlarga ega. Yangi to'liq islom banki bu resurslarni qisqa muddatda qo'lga kiritmaydi. Shu sababli islom darchasi modeli resursga-asoslangan yondashuv nuqtai nazaridan strategik jihatdan ustundir.

Teece, Pisano va Shuenning (1997) dinamik salohiyatlar konsepsiyasi ham bu tahlilni boyitadi. Dinamik salohiyatlar - firmaning tashqi muhit o'zgarishiga moslashib, o'z resurslari va kompetentsiyalarini yangilash qobiliyati. O'zbekistonda O'RQ-1126-sonli Qonun kuchga kirishi bilan mavjud vaziyat o'zgaradi. Mavjud tijorat banklari o'zlarining dinamik salohiyatlarini ishga solib, islom darchasini ochish orqali ushbu o'zgarishga tez moslashishi mumkin. To'liq islom banki esa bu dinamik moslanish nisbatan qiyin kechadi - u o'zini noldan shakllantirishi zarur.

Institutsional nazariya va O'zbekiston regulyatorlik muhiti. DiMaggio va Powellning (1983) institutsional nazariyasiga ko'ra, tashkilotlar nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki tashqi institutsional bosim - qonunchilik, me'yoriy normalar va tarmoq an'analari - ta'sirida ham o'z shaklini belgilaydi. Ular institutsional bosimning uch turini ajratadilar: majburiy izomorfizm - davlat yoki tartibga soluvchi organ tomonidan belgilangan qoidalar; taqlid izomorfizm - muvaffaqiyatli modellarni o'rganish va tadbiq etish; va normativ izomorfizm - professional standartlar va me'yorlar ishlab chiqish.

O'zbekistonda O'RQ -1126-sonli Qonun qabul qilinishi DiMaggio va Powell (1983) tili bilan majburiy izomorfizmning ko'rinishi bo'lib, davlat islom bankchilik institutlarini yaratish uchun huquqiy asos joriy etdi. Qonun bir vaqtda ikkala modelga - islom darchasi va to'liq islom banki - yo'l ochadi. Shu bilan birga, qonun tijorat banklariga islom darchasi orqali tezroq va arzonroq boshlash imkonini berdi, bu esa taqlid izomorfizmga yo'l ochadi: O'zbekiston tijorat banklari Qozog'iston va Malayziya kabi muvaffaqiyatli modellarni o'rganib, islom darchasi yo'lini tanlashi mumkin.

Norzning (1990) institutsional iqtisodiyot nazariyasiga ko'ra, institutsional o'zgarishlar o'z-o'zicha yetarli emas - ularni samarali amalga oshirish uchun qo'shimcha tashkiliy va moliyaviy shart-sharoitlar zarur. O'zbekiston holatida bu shuni anglatadiki, O'RQ-1126-sonli Qonun islom bankchiligi uchun huquqiy asos yaratgan, lekin: birinchidan, tijorat banklarining amaliy tayyorgarligi; ikkinchidan, bozor talabining real darajasi; uchinchidan, kadrlar salohiyati - bularning barchasi bir vaqtda baholanishi lozim.

Tijorat banklarida ko'rsatiladigan islom bank xizmat turlari. Islom moliyasini tashkil etuvchi tashkilotlarni sanab o'tadigan bo'lsak, eng katta qismni islom banklari tashkil etishi haqida ko'plab ilmiy izlanishlarda aytib o'tilgan. Islom banklari - islom dini tamoyillariga asoslangan holda faoliyat yurituvchi bank hisoblanadi. Yuqoridagi ma'lumotlar va tadqiqotchilardan kelib chiqib, islom darchasi so'ziga ta'rif berishni lozim topdik. **Islom darchasi** - an'anaviy tijorat banki qoshida ochilgan islom moliyaviy xizmatlarini ko'rsatuvchi bo'lim hisoblanadi. Sof islom banklaridan farqli o'laroq islom darchalari an'anaviy bankka bo'ysunadi.

Umuman, islom banklarning faoliyati quyidagi asos bo'luvchi qoidalarga tayanadi:

- pul puldan paydo bo'lmasligi kerak, ya'ni kapitalning o'sishi sof pul aylanmasi sohasida amalga oshishi mumkin emas;

- investorlarning daromadi savdo va ishlab chiqarishga qilingan investitsiyalar bilan bog'liq bo'lishi kerak;

- bitim ishtirokchilari o'rtasidagi munosabat sherikchilik asosida qurilishi lozim;

- pul tovar hisoblanmaydi, u faqat qiymat o'lchovidir.

Islom banklari faoliyati xususiyati quyidagi jihatlari bilan ta'riflanadi:

- kuzatuv kengashi, shariatga muvofiqlikni ta'minlovchi ichki audit vazifasi) ila korporativ boshqaruvni qurish;

- risk-menejmentining vazifasi mahsulot (xizmat)larning xususiyati va bank hamda mijoz o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni ifodalaydi;

- likvidlikni boshqarish vazifasi shakllantiriladigan bank aktivlarining, ayniqsa, bankning qisqa muddatli (joriy) likvidligining shariatga muvofiqligini ta'minlash borasidagi tavsifini aks ettiradi;

- mijoz va omonatchilar faoliyati natijasi (foyda va zarar)da bankning, bank faoliyati natijasi (foyda va zarar)da mijoz va omonatchilarning ishtiroki (Байдаулет, 2019);

Islom darchalarida moliyaviy xizmatlari qanday ko'rsatiladi degan savol tug'iladi. Biz AAOIFI va IFSBga tayangan holda islom darchalari ishlashi uchun quyidagi talablarga javob berishi kerak deb hisoblaymiz:

- mablag'larni tijorat bank mablag'laridan ajratish;
- shariat nazorat tizimining mavjudligi;
- faqat shariah tomonidan ruxsat berilgan operatsiyalar;
- ribo (foiz) taqiqlanishi;
- g'arar va maysirning cheklanishi;
- alohida hisob siyosatining mavjud bo'lishi;
- ichki va tashqi auditning amal qilishi
- daromadlarning tozalanishi (nojo'ya daromad aniqlangan holda ularni hariya ishlariga yo'naltirish).

Islom darchalari tomonidan ko'rsatiladigan moliyaviy xizmatlarni quyida qanday ishlab chiqilganini bank miqyosida ko'rib chiqamiz.

Xulosa va takliflar.

To'rtta nazariy yondashuvning sintezi shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda islom moliyasini rivojlantirish uchun eng maqbul boshlang'ich model - **islom darchasi** hisoblanadi. Buning asosiy sabablari:

- Kirish xarajatlari nuqtai nazaridan: islom darchasi mavjud infratuzilmadan foydalanib, eng past boshlang'ich xarajat bilan bozorga kirish imkonini beradi;

- Tranzaksion xarajatlar nuqtai nazaridan: "parent bank" bilan birgalikdagi faoliyat orqali umumiy xarajatlar, miqyos iqtisodiyoti va mijozlar ishonchi samarali taqsimlanadi;

- Resursga asoslangan yondashuv nuqtai nazaridan: tijorat banklarining brend, filial tarmog'i, mijozlar bazasi va raqamli platformasi - bu resurslar to'liq islom banki tomonidan qisqa muddatda qo'lga kiritilishi mumkin emas;

- Institutsional nazariya nuqtai nazaridan: O'RBQ-1126-sonli Qonun islom darchasi modelini tezkor va arzon joriy etish uchun huquqiy asos yaratilgan;

- Tijorat banklari (Hamkorbank kabi) islom darchasini bosqichma-bosqich joriy etishlari maqsadga muvofiq - birinchi bosqichda asosiy mahsulotlar (murobaha va ijara) bilan chiqish, keyin mudoraba va mushorakani kengaytirish;

- Mablag'larni tijorat bank mablag'laridan qat'iy ajratish mexanizmi va Shariat nazorat tizimini AAOIFI talablariga mos holda shakllantirish zarur.

Adabiyotlar / Литература / Reference:

Barney J.B. (1991) *Firm resources and sustained competitive advantage* // *Journal of Management*. – Vol. 17, № 1. – P. 99–120.; Penrose E.T. *The Theory of the Growth of the Firm*. – Oxford: Blackwell, 1959. – 272 p.

DiMaggio P., Powell W. (1983) *The iron cage revisited: institutional isomorphism and collective rationality in organizational fields* // *American Sociological Review*. – Vol. 48. – P. 147–160.

Dodiyev Fozil O'tkurovich, Boboyorov Asilbek Yo'ldoshovich. (2022) *O'zbekistonda islomiy bank mahsulotlarini joriy etish istiqbollari*.

Duvall, Jerry B., and George S. Ford. (2001) "Changing Industry Structure: The Economics of Entry and Price Competition." *Phoenix Center Policy Paper No. 10*. Phoenix Center for Advanced Legal and Economic Public Policy Studies, April. – 12 p.

Hidayat & Al-Khalifa (2016). *Islamic Banking Windows Vs Islamic Banking Subsidiary: Educators' Opinion In Bahrain*. *International Journal of Pedagogical Innovations*, Vol. 4, No. 2.

Maxkamov E.X. (2021) *Tijorat banklarida faoliyat ko'rsatuvchi islom darchalarining dolzarbligi* // "XXI asr: fan va ta'lim masalalari" ilmiy elektron jurnali. – №4. – ISSN 2181-9874.

Mohamed Bechir Chenguel, Meriem Jouiro. (2019) *Installing Islamic Banking Windows in Conventional Bank: Effects on Performance* // *International Journal of Financial Engineering*. – Vol. 6, No. 4. – DOI: 10.1142/S2424786319500336.

North D.C. (1990) *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*. – Cambridge: Cambridge University Press, – 152 p.

O'zbekiston Respublikasining Qonuni. (2026) "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" (O'RQ-1126-son, 2026-yil 27-mart).

Teece D., Pisano G., Shuen A. (1997) *Dynamic capabilities and strategic management* // *Strategic Management Journal*. – Vol. 18, № 7. – P. 509–533.

Байдаулет, Е.А. (2019) *Исломий молия асослари [Матн] / Е.А. Байдаулет. – Тошкент: «O'zbekiston» НМИУ, – 84 б.*